

Gazeta 1932-yil 1-maydan chiqa boshlagan

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi va tuman hokimligining gazetasi

2024-yil — Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili

SESSIYA

YILIMIZ ISTIQBOL BELGILANDI

Odatdagidek, yil oxiriga borib deputatlarimiz tumanimizning kelgusi yil istiqbollarini tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida muhokama etib, prognoz ko'rsatkichlarni tasdiqlaydilar. Har bir sohani rivojlantirishda mahalliy byudjet tomonidan ajratiladigan pul mablag'lari qaysi maqsadlarda foydalanilishi belgilab oladilar.

Tuman Kengashining 70-sessiyasida ham asosan ikkita masala muhokamaga qo'yilgan edi. Dastlab tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarida 2024-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash haqidagi masala muhokama etilgan bo'lsa, ikkinchi masala, "Boysun tumanining 2024-yilga mo'ljallangan mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi masala yuzasidan tuman moliya bo'limi mudiri Shavkat To'rayevning ma'ruzasi tinglandi. Shundan so'ng deputatlar yuqoridagi masalalarni muhokama etishga kirishdilar. Nazar Turdiboyev, Fayziddin Tursunqulov, Abdulla Rahimov singari deputatlar soliq stavkalari, sohalarga yo'naltirilgan byudjet mablag'lardan foydalanishni nazorat qilib borish, tibbiyot, xalq ta'limi, qurilish sohalari bilan bir qatorda fizkultura va sportni rivojlantirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash yuzasidan o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdilar. Sessiyada yilimiz istiqboli tasdiqlanib, ayni paytda sohalarni rivojlantirishga qaratilgan fikr-mulohaza va takliflar asosida dasturlar tuzish boshlandi.

G. TOSHOBOYEV, tuman Kengashi deputati.

Республика маънавият ва маърифат Кенгашининг навбатдаги йиғилишида мухтарам Президентимиз жойларда маънавий-маърифий мухитни янада яхшилаш, бу борада маданият, театр жамоалари имкониятидан самарали фойдаланиш хусусидаги таклиф ва мулоҳазаларини билдирган эдилар.

Мамлакатимизда ҳам театр санъати ривожланган. Хусусан, барча вилоятлар марказларида театр жамоалари фаолият олиб бормоқда. Аммо уларнинг фаолиятидан барча бирдек баҳраманд бўла олмаёпти. Жумладан, вилоятимиз маркази Термизда фаолият юритаётган Маннон Уйғур номидаги театр жамоасининг сахна асарларини томоша қилиб завқ олиш, айтиқлик, олис туманлар аҳолиси учун имконият хорижидаги иш. Кўпгина давлатларда мана шундай муаммоларга аллақачон ечим топилаган: томошабин театрга бориши қийин бўлган шaroитда театр томошабин ҳузурига бориш таърибаси мавжуд.

Сурхондарё вилоят драма театри ижодий ҳодимлари ўтган йиллар давомида мана шу таърибга ўлароқ туманимизга икки-уч маротаба ташриф буюриб, аjoyиб томошаларини тақдим қилгандилар. Президентимизнинг

аҳоли орасида театр маданиятини шакллантириш борасидаги таклифларидан сўнг мазкур жамоаянги йилнинг дастлабки кунлариданоқ туманимизда алоҳидий сарфларда бўлиб, "Хазина" номи саҳна асарини томошабинларга тақдим этдилар.

Асар гарчанд комедия жанрида бўлса-да, унда бугунги кундаги ҳаётимизда учраб турувчи ижтимоий-маиший муаммолар талқин этилганлиги билан ҳам томошабинларда катта таассурот қолдирди, дейиш мумкин. Айниқса, ҳар бир актёрнинг ўз персонажлари ички олами кўрсатиб бера олиш маҳорати бугунги кунда вилоят-

лар театр жамоаларида ҳам профессионал мухит ўзига хос шаклланиши, театр репертуарлари томошабиннинг диди ва савияси талабларига жавоб бера оладиган асарлар билан бойитилаётганлигидан дарак беради.

Уша кун гарчанд асар уч маротаба қайта намоиш этилган бўлса-да, томоша зали бўш қолгани йўқ. Бу халқимиз ҳали театрдан узоқлашма-

гани ва эндиги вазифа мана шу масофани янада яқинлаштириш лозимлигини кўрсатади.

Қизиқарли кечган театр томошасидан сўнг томошабинлар вилоят драма театри жамоасига қизиқарли байрам сахнаси учун ўз миннатдорчиликларини билдирдилар.

Ҳамза БОЗОРОВ,

туман маданият маркази раҳбари.

"ХАЗИНА"НИНГ БОЙСУНГА ТАШРИФИ



Surxondaryo viloyati Boysun tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, 2023-yil 25-dekabrda O'RBQ-886-son "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrda 22-04-13/7524-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Boysun tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RBQ-886-son "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrda VI-81-232-8-O/K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi 2023-yil 25-dekabrda O'RBQ-886-son Qonuniga (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Boysun tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 68,7 milliard so'm, xarajatlari 148,4 milliard so'm prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 79,7 milliard so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun mahalliy byudjeti daromadlar prognozi ko'rsatkichi 1-

ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman byudjetidan 2024-yilgi hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman byudjetiga umumiy davlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarning prognozi 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2024-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 1,3 milliard so'm miqdorida belgilansin.

9. 2024-yil tuman byudjeti

shaxsiy g'azna hisob varag'ida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 768,8 million so'm 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan 2024-yil Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlari mahalliy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlarini kengaytirilganligi inobatga olinsin.

11. 2024-yilda tuman soliq inspeksiyasini saqlash xarajatlari tuman mahalliy byudjetidan, qishloq xo'jaligi bo'yimini saqlash xarajatlari viloyat byudjetidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar byudjetiga to'liqligicha o'tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan

mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarning mulklarini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

sement va o'g'achadan tashqari, alohida noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qat'ridan foydalanilganlik uchun soliq;

yig'imlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig'i;

yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga sotishdan aksiz solig'i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.

(Davom 2-betda)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 декабрдаги "Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўлин сифатида ишлашни таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-209-сон Фармони асосида "маҳалла еттичилиги" (аввалги "бешлик") ҳар бир аъзосининг вазифалари белгиланган берилди.

Унга қўра маҳалла раисининг асосий вазифалари маҳалла ободончилигини таъминлаш, шу жумладан, "Обод маҳалла", "Обод кўча", "Обод ҳонадон" мезонларини жорий этишда аҳолининг фаол иштироки ва масъулиятини ошириш, "Яшил макон" умумий миллий лойиҳасида дарахт ва бута кўчатлари экиш бўйича тарғибот ишларини амалга ошириш, соғлом жамиятнинг муҳитини сақлаш, миллий қадриятлар, урф-одатларимизни тарғиб қилиш, исрофгарчиликсиз ихчам тўйлар ўтказишларини таъминлаш, маҳаллага бириктирилган давлат органлари вакиллари мумамоларини ҳамкорликда ҳал этишга сафарбар этиш, муаммоларга ечим топишни таъминлашдан иборат бўлади.

Маҳалланинг доимий даромадга эга бўлмаган ишсиз аҳолиси қатлами касб-ҳунар ҳамда тadbirkorlikка ўқитиш, банд-

лигини таъминлаш чораларини кўриш, маҳаллада тadbirkorlikни ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш мақсадида кредит ва субсидиялар ажратилишида кўмаклашиш, ўзини-ўзи банд қилган ҳамда ташаббускор фуқароларнинг тadbirkorlikка қизиқишларини аниқлаш, уларни кичик бизнес субъектига айлантириш ҳоким ёрдамчиларининг асосий вазифалари ҳисобланади.

Маҳалла ёшлари учун масъул бўлган ёшлар етакчилари асосан маҳалладаги ёшларнинг бўш вақтини мазмунли таъминлаш, уларни "Беш ташаббус" олимпиадасига жалб этиш, ишсиз ёшлар ва мактаб битирувчилари бандлигига кўмаклашиш, хусусан, "Ёшлар бандлиги дастури"ни маҳаллада амалга ошириш, давлат кўмадига муҳтож "оғир" тоифадаги ёшларнинг ҳаётида ўз ўрнини топишга кўмаклашишга масъулдир.

Фармонга қўра маҳалла хотин-қизлар фаоли зиммасига ҳам долзарб вазифалар қўйилган. Хусусан, маҳаллада "Соғлом оила — соғлом жамият" тамойилларини тарғиб қилиш, жумладан, яқин қариндошлар ўртасидаги ва эрта никоҳнинг олдини олиш, репродуктив саломатлигини яхшилаш, оилавий қадриятларни мустаҳкамлаш бўйича мақсадли чора-тадбирларни амалга оширади. Хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини

Ёшлар тadbirkorlik кластери муҳандислик, техник коммуникациялар билан таъминланган ва ёш тadbirkorlarга узоқ муддатли ижара ҳуқуқида фойдаланиш учун бериладиган ишлаб чиқариш майдонларини ўз ичига олган ҳудуд ҳисобланади.

Кластерлар ҳудудида жойлашган ишлаб чиқариш майдонлари фақат Ўзбекистон Ёшлар иттифоқига аъзо бўлган ёш тadbirkorlarга қорхона ташкил топгунига қадар, аммо беш

МАҲАЛЛА ЕТТИЛИГИНИНГ ВАЗИФАЛАРИ БЕЛГILANAN

ошириш, таълим имкониятларини кенгайтиришга кўмаклашадиган ва хотин-қизлар муаммоларини ўз вақтида аниқлаш, уларни бартараф этиш юзасидан давлат органлари ва ташкилотларига мурожаат қилади.

Эндиликда маҳаллаларда ижтимоий ҳодим ва солиқ инспектори лавозимлари ҳам жорий этилди. Хусусан, ижтимоий ҳодим зиммасига оғир ҳолга тушиб қолган ва оғир аҳволга тушиб қолган хавфи юқори бўлган шахслар ва оилаларни аниқлаш, уларнинг эҳтиёжларига қараб комплекс ёндашув асосида профессионал ижтимоий хизмат кўрсатиш ва ёрдамларни ташкил этиш каби вазифалар юкланди. Солиқ инспектори эса тadbirkorlarга солиқ хизматларини кўрсатиш, солиқ базасини кенгайтириш, солиқларни ундириш ва маҳалла бюджетининг даромадини шакллантиришни амалга оширади.

Фармонга қўра "маҳалла еттичилиги"нинг фаолияти асосий самарадорлик кўрсаткичи (КПИ) бўйича баҳоланади.

Нодир МАМАДИЕВ,

Бойсун туман адлия бўлими бошлиғи.

йилдан кўп бўлмаган муддатда ижара берилди. Кластерда ёшларга маслаҳат бериш, тadbirkorlik фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ зарур ҳужжатларни тайёрлашда амалий ёрдам кўрсатиш хизматлари бепул амалга оширилади. Кластер ҳудудида жойлаштирилаётган ҳодимларнинг штати 35 ёшгача бўлган шахслар билан тўлдирилиши ва улар ҳодимлар умумий сонининг камида 70 фоизини ташкил этиши керак. Фойдаланилмаётган, шу жумладан, эркин

Президенти-мизнинг бир қатор фармон ва қарорлари билан маҳалла институтини янада такомиллаштириш орқали аҳоли фаровонлигини янада оширишга алоҳида аҳамият қаратилмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўлин сифатида ишлашни таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида"ги 2023 йил 21 декабрдаги ПФ-209-сон Фармони ҳамда "Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси фаолиятини йўлга қўйиш ва маҳаллаларда

вазифалар, жумладан, маҳалла уюшмаси ва Кенгаш олдида турган устувор вазифаларни тўғри йўлга қўйиш ва амалга ошириш борасидаги устувор ишлар хусусида батафсил тўхтаб ўтилди. Шунингдек, маҳалла "еттичилиги" тизимининг самарадорлигини ошириш борасидаги таклиф ва мулоҳазалар ҳам муҳокама этилди.

Ташкилий йиғилиш давомида кун тартибига қўйилган масалалар юзасидан бўлиб ўтган музокаралар жараёнида сўз олган Республика маънавият ва маърифат маркази туман бўлими раҳбари С.Ғазиева, Авлод



бошқарув тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 2023 йил 21 декабрдаги ПК-402-сон қарори билан маҳаллаларни қўллаб-қувватлаш борасида устувор вазифалар белгиланган берилди.

Мазкур белгиланган вазифалар ижроси доирасида жорий йилнинг 12 январь кунда Boysun туман маҳаллаларни қўллаб-қувватлаш Кенгашининг ташкилий йиғилиши бўлиб ўтди. Унда дастлаб туман ҳокими Боҳадир Шукуровнинг юқорида тилга олинган Президент Фармон ва Қарорлари доирасида туманда амалга оширилиши лозим бўлган муҳим

МФЙ раиси С.Хурсанов, Арикусти МФЙ раиси Т.Муртазоев ва бошқалар маҳаллалар фаолиятини янада такомиллаштиришга қаратилган Президент фармон ва қарорларини жойларда тўғри амалга оширилиши таъминлаш борасида ўз фикр ва мулоҳазаларини билдирдилар.

Йиғилиш сўнггида Сурхондарё вилоят Маҳалла қўллаб-қувватлаш Кенгашининг ташкилий конференциясига Boysun туманидан олти нафардан иборат делегатлар таркиби сайланди.

Юнус ХОЛИЁРОВ,

туман ҳокимлиги ахборот хизмати раҳбари.

ЁШЛАР ТАДБИРКОРЛИК КЛАСТЕРЛАРИГА ИТТИФ



иқтисодий ва кичик саноат зоналари ҳудудида жойлашган давлат мулки Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи аъзоси бўлган ёш тadbirkorlarга Ўзбекистон ёшлар иттифоқининг шаҳар ҳамда туман Кенгашларининг илтимосига

қўра 5 йилдан кўп бўлмаган муддатга ижара ҳақининг "нол" ставкаси бўйича ижарага берилди.

Шавкат ТОҒАЕВ,

Давлат хизматлари маркази мутахассиси.

Аъзо муштабчилар! БОЙСУН

2024 йил учун "БОЙСУН" ГАЗЕТАСИГА ОБУНА ДАВОМ ЭТМОҚДА

Обуна бўлиш бевосита газета муҳарририяти орқали амалга оширилади. (Агро-банкдаги ҳисоб рақами: 2 0 2 1 0 0 0 0400429681001, ИНН:202173689)

Йиллик обуна баҳоси — 200000 сўм.

(Boshi
1 -betda)

XALQ DEPUTATLARI BOYSUN
TUMAN KENGASHINING QARORI

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i; elektr stansiyalaridan boshqa to'lovchilar tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

v) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o'tkazib beriladi.

12. Tuman hokimiyatining birinchi o'rinbosari (F. Normamatov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Sh. To'rayev), tuman soliq inspeksiyasi (T. Sarmanov) tuman hokimligi va mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va doridarmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish; mahalliy byudjeti prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratish.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (T. Sarmanov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'yimaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratishlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer

va mol-mulk solig'i ning soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (T. Sarmanov), Kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig'i (M. Jo'rayev) 2023-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulkilari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulkilarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (T. Sarmanov), Kongeologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan nazorat o'rnatish.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheydlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Boysun tuman bo'limi boshlig'i (M. Mirzayev) tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i (T. Sarmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

17. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (U. Jo'rayev), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatish.

18. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

Boysun tuman hokimligi

2023-yil 30-dekabr, VI-70-126-8-110-K/23

B. SHUKUROV

Butun mehnat

faoliyatim

kiishok

hujaligi

sohasida

uttan. Hamjort

elldoshlarim

buni yaxshi

bilishadi.

Hujaligi rahbaridan tortib.

tuman hokimi vazifasigacha

ishlaganimdan ham xabardor.

Ammo esimni taniganimdan

bun hamisha boshqa bir

darad bilan enma-en.

bakamti yashayman.

Yaxshi ma'nodagi bu dard —

adabiyet, ijod va

kitobxonlikdir. Men bugungacha

ha'itimni bir kun bulsa-da bu

darad dan ayro kurmaganiman,

kur olmasam ham kerak. Mana,

yqinda "Boysun darfalari"

nomli yana bir kitobim

bosmadan chiqdi. Esh bir joyga

borib qoldi, degan fikrda

ijoddan uzoklashmaganim

natijasi bu.

Darvoqe, men aslida uzim

hqimda, asarlarim hqida

ezish nиятида qalam

olmagandim, kulimga. Holis

niyatlarim, turgirogi

taqiflarim bor edi... Necha

йилдирки, шу taқlif hqida

уйлайман. Бир-икки ijodkor

укаларимга "erildim" ham.

Oqibat, ularning maslahatu

fikrlarini inobatga olib,

uzimzining gazeta orqali keng

jamootchilik, qolaversa, tuman

rahbariyati etyiboriga havoла

qilishini ma'yul kurdim.

Hulas, adabiyet, ma'naviyat-

ma'rifat, ilm-fan hqida

уйлай туриб, ha'limga shunday

bir fikr keladi. Bu hqda kup

уйладим, мулохaza qildim.

Keling, adabiyet, katta

ma'nodagi ijoddan bohlasam.

Men uzimga savol berdim:

bugunga kelib "Jaxon adabiyeti"

degan maydonda ozdir-kupdir uz

urniga ega bulgan uzбек

adabiyetida Boysun adabiy

мухитining (Bugun bemalol

Boysun adabiy muхiti deb aita

olish mumkin. X.Ч) nechogli urni

bor? Agar bor bulsa, eng

avvalo, biz – бойсунлик

adabiyetsevarlar, ma'rifat

darfalaridan boшла

rahbarlargacha

nechoqli

BOYSUNDA MA'NAVIYAT-

anglaypmiz, tasavvur qilyapmiz?

Uz zamonasida "Gul va Zebo" dostoni bilan olamga mashhur bulgan Masexo Boysuniy uz asarlari bilan xalqimiz ma'naviyat hazinasiga qanchalik ma'naviy boylig kushganligini bugun kay daraжаda anglab etyapmiz. Umuman, Masexo Boysuniy hqida nimalarни qanchalik bilaмiz? Yana, Masexogacha va Masexo zamoniда ungа baqamti yashab ijod etgan adiblar, ziyelilarimiz hqida tushunchamiz kay daraжаda?

Zamonaviy adabiyetimiz-chi? Uzбек adabiyeti, sherryatining keyingi yrim asrlik hazinasini bebaхо asarlar bilan boyitgan Shukur Holmirmza, Erkin Azzam, Usmon Azim... Bu egi tojik adabiyetining "Aytmatovi"ga айланган, zamonaviy tojik adabiyetini dunё saхnasiga olib chiqqan Sattor Tursun...

Dunё fan olamiga ham bir назар tashlang. Sobiq СССР Fanlar Akademiyasining akademigi Mullожон Erkaev, yana unlab fan doktorlari, профессорлар. Madaniyat soҳasida-chi. Uzбекистон tarixida bulmagаn voқelik — bir tumandan birin-ketin uchta xalq ansambli daraжasidaги badiiy jamoa. Unga yaқin "Uzбекистонда хизмат kursatgan madaniyat ходими" unvoniga loyiq qurilgan fидийol madaniyat ходимlari, журналист-ijodkorlar, uzбекning birinchi "Xalq bahshisi" Shoberdi bahshi Boltaev...

Спорт soҳasiga ham bir назар tashlang. Milliy кураш buyicha birinchi jaxon чемпиони айнан бойсунлик полвонга тегишли эканлигини унутиб булармикан. Toshmيرning izidan yorgan Abdulла Tanrgiev, Muzaффар Turaboevlar-chi.

Harbiy vatanparvarlik — yoshlarimiz orasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarining ajralmas muhim qismidir. Shu bois joylarda yoshlar hamkorligida o'tkazilayotgan har qanday darajadagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarning ma'lum bir qismi, albatta, harbiy vatanparvarlik mavzuida bo'lishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Zero, mamlakatimiz harbiy kuchlari safini hamisha har tomonlama salohiyatli, bilimli va jismonan baquvvat kadrlar bilan to'ldirib borish yoshlar hisobida amalga oshirilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, farzandlarimizni yoshligidanoq harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash nechog'li ahamiyat kasb etishini tasavvur qilish qiyin emas.

Yoshlarni harbiy chaqiruvga qadar harbiy ko'nikmalarga tayyorlash amaliyoti ham mana shu vazifalarning boshlang'ich qismi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, bu jarayon asosan maktab ta'limi

yo'lida yigittlik burchlarini bajarayaptilar. Hisob-kitoblarga ko'ra har yili domlarning 7-8 nafar shogirdlari aynan harbiy sohani tanlagani holda Qurolli kuchlarimiz safiga qo'shilyaptilar. Bu tumanimizning boshqa ta'lim maskanlari bilan solishtirganda eng yuqori ko'rsatkich.

"Chori komandir"ning o'zlariga xos bir xislatlari doim diqqatimni tortgan — u kishi hech qachon faqat fan doirasidagi ta'lim standarti bilan cheklanib qolmaganlar. Nazariy bilimlarni albatta amaliyot bilan muvofiqlashtirishga harakat qiladilar. Bunda harbiy vatanparvarlik mavzuidagi tadbirlar eng asosiy o'rin tutadi. E'tiborlisi shundaki, bu kabi mavzudagi tadbirlarni faqat birgina maktabimiz doirasida emas, balki hududdagi qo'shni maktablar talabalarini jalb etgan holda o'tkazishga intiladilar. Mana, yaqinda ham 14-, 15-, 24-, 40-, 62-, 46-umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari hamda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari ishtirokida katta tadbir o'tkazdilar. Tadbirda tuman

EL NAZARIDAGI "CHORI KOMANDIR"

dasturi doirasida amalga oshirib kelinadi. O'z-o'zidan ayon bo'ladiki, harbiy ta'limning mana shu boshlang'ich jarayoni sifati qay darajada bo'lishi shu soha mutaxassisi — chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining o'z vazifasiga qay darajada yondashuviga juda-juda bog'liqlidir.

Bu masalada ishonch bilan aytishim mumkinki, men faoliyat ko'rsatayotgan maktab yuqori sinf talabalarining baxti chopgan. Bunday deiyishga asosim esa, mana necha yildirki, iste'fodagi kapitan Chori aka Berdiyevning ta'lim maskanimiz talabalariga chaqiruvga qadar boshlang'ich ta'limdan dars berayotganlaridir.

Ustozni Machay tomonlarda "Chori komandir" deya nomlashadi. Bekorga emas bu. Ayni paytda u kishining ta'limlarini olgan 70 nafar shogirdlaridan 20 nafari ofiser sifatida, 50 nafari esa shartnomas asosida O'zbekiston Qurolli kuchlari safida xizmat qilib, mamlakatimiz osoyishtaligi va el tinchligini saqlashni ta'minlash

Mudofaa bo'limi boshlig'i O. Murodov va bir necha xodimlar ham ishtirok etib, o'tayotgan vatanparvarlik oyligi doirasida o'z fikr-mulohazalari, mamlakatimiz harbiy salohiyatini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maktab va jamoatchilik hamkorligi mavzuida qiziqarli ma'lumotlar va takliflarni bildirilar.

Tadbir davomida tajribali harbiy ustoz Ch. Berdiyev yig'ilganlarga Kalashnikov avtomatini qismlarga bo'lish va yig'ish mashg'ulotlari bo'yicha ochiq amaliyotni bajarib ko'rsatdilar. Shuningdek, tadbir jarayonida hududimizdan Oliy Harbiy bilim yurtlari va "Temurbeklar" maktabiga o'qishga borish istagida bo'lgan yoshlar saralanib, ro'yxatga olindi.

Tadbir nihoyasida tuman Mudofaa bo'limi boshlig'i O. Murodov ustoz Chori Berdiyevga yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida olib borayotgan samarali faoliyati uchun minnatdorchilik bildirdi.

Behzod ERGASHEV, 46-umumta'lim maktabi o'qituvchisi.

14 ЯНВАРЬ — ВАТАН ХИМОЯЧИЛАРИ КУНИ

Хақиқий эр йигитнинг энг буюк, эзгу ва муқаддас вазифаси, аввало ўз оиласи, Ватани ва халқини муносиб Шавкат Мирзиёев.

Ҳимоя қилишдан иборат.

Дарҳақиқат, мамлакатимиз ҳарбийлари бундай бурч ва вазифани касб сифатида танлаган мард ўғлонлардир. Зеро, уларнинг мардона хизматлари туфайли осмонимиз мусаффо, халқимиз хотиржам.

Ватан Ҳимоячилари куни муносабати билан январь ойи мамлакатимиз бўйлаб ҳарбий ватанпарварлик ойлиги деб эълон қилинган. Бу шуни аниқлатадики, сарҳадларимиз дахлсизлиги, халқимиз осоишталигини сақлашдек шарафли иш ҳақиқий маънода ҳар қандай эъзозга лойиқ. Қолаверса, бу халқимиз, айниқса, ёшлар ўртасида ҳарбий-ватанпарварлик тарбияни янада яхшилаш, ёш авлод онгида ватанга садоқат ва муҳаббат туйғуларини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этиши муқаррар.

Ўзбекистон Республикаси Президенти, Ўзбекистон Қуролли кучлари Олий Бош қўмондони Шавкат Мирзиёев қайд этганларидек, дунё миқёсда халқаро терроризм, экстремизм

каби хавф-хатарлар кучайиб, глобал хавфсизликка қарши таҳдидлар ортиб бораётган ҳозирги мураккаб даврда Қуролли кучларимизнинг жанговар салоҳиятини юксалтириш, моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, замонавий қурол-ярқ ва ҳарбий техникалар билан таъминлаш, ҳарбий хизматчиларнинг жисмоний, маънавий интеллектуал

дунёнинг энг кучли давлатларининг Қуролли Кучлари ўртасида ўтказиб келинаётган ҳарбий тактик машғулотлар, танловлар ва мусобақаларда мамлакатимиз ҳарбийлари ҳам юқори натижаларга эришаётганлари мисолида ҳам

гувоҳчи бўляпмиз. Хусусан, кейинги беш йил давомида Америка, Англия, Россия, Покистон давлатларида ўтказилган Ҳарбий-тактик мусобақаларда мамлакатимиз Қуролли Кучлари вакиллари мунтазам юқори ўринларни олиб, давлатимиз ҳарбий салоҳиятини дунёга намойён этиб, Ўзбекистонимиз сарҳадларининг дахлсизлиги ишончли қўлларда эканлигини исботлаб келяптилар. Биз бойсунликлар учун фахрланидиган жиҳати шундаки, ҳамюртимиз — Мачайда туғилиб ўсган Зокир Яллақаев бошлиқ

Ҳар галгидек бу йил ҳам ватанпарварлик ойлиги бошланиши ҳамон ёшларни Ватани севишга, ўтган аждодларимиз руҳига ҳурмат кўрсатиш ва бугунги кунда ёшларимиз нечоғлик жисмоний тайёргарлик ва билимга эга эканликларини билиш мақсадида жойларда тadbирлар ўтказилиб бoриляпти.

Туман мудофаа ишлари бўлими, ёшлар ишлари агентлиги, мактаб ва мактабгача таълим бўлимлари, маънавият ва маърифат вакиллари ҳамкорлигида 27-умумий ўрта таълим мактабида уюштирилган кўчмачи ёшлар билан мулоқот очиқ майдонда, мустақиллигимиз учун курашда вафот этган қорбоғлик Машираб Жураев хотираси учун ўрнатилган бюст атрофида амалга оширилди. Дастлаб қаҳрамон йигитнинг бюсти пойга гуллар қўйилиб, хотираси ёд этилди. Унинг жасорати, ҳаёти ҳақида маълумотлар берилди. Бевосита бу тadbирнинг давоми сифатида Ватан Ҳимоячилари куни арафасида мард ўғлон туғилган хонадонда бўлиб, оила аъзоларига ҳам ҳурмат кўрсатилди.

Албатта, бу каби тadbирлар ёшларни ватанпарварликка ундаш, уларни Ватани севишга, ўтганлар руҳини ёд этишга хизмат қилса бугунги ҳаётлари учун ҳам руҳ беради. Шунинг учун ватанпарварлик ойлиги доирасидаги тadbирлар

ВАТАНПАРВАРЛИККА ЧОРЛАЙДИ



бошқа билим даргоҳлари, маҳаллаларда ҳам кенг миқёсда ўтказилди. Хусусан, 1-, 4-, 31-, 46-сонли ҳамда ихтисослаштирилган мактаблар, 4-, 11-сонли давлат мактабгача таълим ташкилотларида уюштирилган суҳбат, беллашув ва маърифий баҳслар қизиқарли, оммавийлиги билан ажралиб туради. Бу ишларни ташкил этишда Рустам Ҳамидов, Фахриддин Амонов сингари зобитларимиз муносиб ҳисса қўшдилар. Ҳа, бу каби тadbирлар ёшларимизни ватанпарварликка чорлаб билим ва тарбия олишларида мададкор бўлиши турган гап. Ҳарбий ватанпарварлик мавзuidaги тантаналар Хотира майдонидagi тadbирлар билан боғланиб кетди.

Ортиқ МУРОДОВ, туман мудофаа ишлари бўлими бошлиғи.

